

# **МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ**



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2023**

**6/3-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

**Нөкис**

**6/3-сан 2023**

**декабрь**

**Шолкемлестириүшилер:**

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириү Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

|                       |                           |
|-----------------------|---------------------------|
| Маңсет АЙЫМБЕТОВ      | Лобар МУХТОРОВА           |
| Нағмет АЙЫМБЕТОВ      | Камаладин МАТЯКУБОВ       |
| Адхамжон АБДУРАШИТОВ  | Раъно ОРИПОВА             |
| Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  | Бахтиёр РАХИМОВ           |
| Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ | Фуркат РАЖАБОВ            |
| Алишер АЛЛАМУРАТОВ    | Сайёра РАХМОНОВА          |
| Дилшодхұја АЙТБАЕВ    | Арзы ПАЗЫЛОВ              |
| Интизар АБДИРИМОВА    | Барлықбай ПРЕНОВ          |
| Мавлюда АЧИЛОВА       | Дилшода САПАРБАЕВА        |
| Нурийдин АЧИЛОВ       | Феруза САПАЕВА            |
| Тұлкин АЛЛАЁРОВ       | Зайниддин САНАҚҰЛОВ       |
| Мариғжон АХМЕДОВ      | Қажхор ТУРСУНОВ           |
| Умида БАХАДИРОВА      | Амина ТЕМИРБЕКОВА         |
| Фарҳад БАБАШЕВ        | Нурзода ТОШЕВА            |
| Ботир БОЙМЕТОВ        | Куанишбек ТУРЕКЕЕВ        |
| Гулзода БОЙМУРОДОВА   | Гулноз ТУРАЕВА            |
| Шахло БОТИРОВА        | Гулмира ТОЖИБОЕВА         |
| Маманазар ДЖУМАЕВ     | Тажибай УТЕБАЕВ           |
| Аскәр ДЖУМАШЕВ        | Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ |
| Алишер ЖУМАНОВ        | Амангелди КАМАЛОВ         |
| Гүлнара ЖУМАШЕВА      | Дилбар ҚАРШИЕВА           |
| Холбой ИБРАГИМОВ      | Воҳид КАРАЕВ              |
| Умида ИБРАГИМОВА      | Дилбар ҚОДИРОВА           |
| Лола ИСРОИЛОВА        | Ризамат ШОДИЕВ            |
| Меруерт ПАЗЫЛОВА      | Абдушукур ШОФҚОРОВ        |
| Аскәrbай НИЯЗОВ       | Дилфузә ШАББАЗОВА         |
| Сабит НУРЖАНОВ        | Зафар ЧОРШАНБИЕВ          |
| Захия НАРИМБЕТОВА     | Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ         |
| Мехри НАРБАШЕВА       | Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ     |
| Улфат МАҲКАМОВ        | Тармиза ХУРВАЛИЕВА        |
| Уролбой МИРСАНОВ      | Умид ХОДЖАМҚУЛОВ          |
| Нуржан МАТЧАНОВ       | Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ   |
| Сафо МАТЧОН           | Гулрухсөр ЭРГАШЕВА        |
| Шукурилло МАРДОНОВ    | Гавхар ЭШЧАНОВА           |
| Шахсанам МАТУПАЕВА    | Қонысбай ЮСУПОВ           |



|  |     |
|--|-----|
| <b>Raxmonov A.R.</b> Ta'lim innovatsiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalnish imkoniyati .....   | 193 |
| <b>Karomov B.K.</b> O'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik mohiyati .....   | 199 |
| <b>Лұхманов Д.Б.</b> Миллій анъаналардан фойдаланиш технологиялари асосида касбий-педагогик фаолиятни ташкил этиш муаммосининг назарий ва амалий ҳолати .....    | 207 |
| <b>Xalmuxamedova M.A.</b> Talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda mehnatning roli .....  | 213 |
| <b>Ismoilova N.S.</b> Talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirishning mavjud holati .....  | 219 |
| <b>Жұраев Ш.М.</b> Педагогика олий таълим муассасалари талабаларида рефлексив позицияни ривожлантиришнинг түзилиши ва ўрни ҳамда ахамияти .....                  | 225 |
| <b>Жұраев Ш.М.</b> Бұлажак ўқитувчиларда рефлексив позицияни ривожлантириш мезонлари ва күрсаткычлари ҳамда даражалари .....                                     | 233 |
| <b>Bekqulov Q.Sh., Barakayeva Ch .S.</b> Darsdan tashqari vaqtarda talabalarining mustaqil ijodiy ish faoliyatini tashkil etish bosqichlari .....                | 241 |
| <b>Raxmanova M. Q.</b> Individual o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarning faolligni rivojlantirish .....  | 246 |
| <b>Quyliyeva O.R.</b> Ilk katta sinf o'quvchilariga texnologiya darslarini o'qitishda kasbga yo'naltirish tamoyillarini shakllantirish masalalari .....          | 253 |
| <b>Ismailova D. R.</b> Talabalarning axloqiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish mechanizmleri .....   | 259 |
| <b>Abdirimova I.K.</b> Klaster modeli asosida o'quvchilar loyihalash faoliyatini shakllantirish .....  | 264 |
| <b>Ortiqov O.A.</b> Marketing tadqiqotlaridagi zamonaviy yondashuvlar tahlili .....  | 269 |
| <b>Qurbanova M. F.</b> Ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etish zarurati .....  | 273 |
| <b>Исманова М.А.</b> Талабаларда ижодий-креативлик сифатларини ривожлантириш .....   | 277 |
| <b>Bekturdiyev Q.B.</b> Ta'linda boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari .....  | 282 |
| <b>Наркабилова Г.</b> К вопросу о потребности формирования цифровой грамотности студентов .....  | 286 |
| <b>Боймираева Д.</b> Совершенствование механизмов организации и управления процессом формирования социальной креативности у будущих менеджеров образования ..... | 290 |
| <b>Юлдашева Г.</b> Развитие профессиональной компетентности у будущих студентов педагогического ВУЗа .....   | 294 |
| <b>Умарова Г.</b> Аспекты, заложенные в содержание профессиональных знаний будущих инженеров на основе интегративного подхода .....                              | 300 |
| <b>Tashpulatov R.Kh., Saidnazarova S.F.</b> Investigation of the quality of additionally acquired knowledge of the learning process .....                        | 308 |
| <b>Sarsenbaev D.</b> Pedagogical approaches in developing communicative competence .....   | 313 |

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

|   |     |
|---|-----|
| <b>Melikuzieva M.</b> Talaba-yoshlarning ma'naviy axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u blig" asarining tarbiyaviy imkoniyatlari ..... | 324 |
| <b>Siddiqov I.</b> Virtual muzeylar va ularning bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rni .....                 | 330 |

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

|  |     |
|--|-----|
| <b>Jumanqo'ziyev O'.</b> Informatika fani darsligi dasturlash tillari bo'limlari mazmuni .....   | 336 |
| <b>Shirinov F.Sh.</b> Multimedia texnologiyalarini ta'lim sohasida qo'llanilishi .....   | 344 |
| <b>Jumanqo'ziyev O'.</b> Umumta'lim mkatablari o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishda dasturlash tillarining o'rni ..... | 349 |
| <b>Sulaymanova D.</b> Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fanini o'rgatishda web-quest texnologiyasidan foydalananish .....        | 357 |
| <b>Yusupov M.R.</b> Ba'zi matnlari masalalarini yechish usullari .....   |     |



## INDIVIDUAL O'QITISH TEKNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUVCHILARNING FAOLLIGNI RIVOJLANTIRISH

**Raxmanova M. Q.**  
*pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

**Tayanch so'zlar:** individual, individual yondashish, treningni individuallashtirish, ijodiy rolli o'yinlar, o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi, dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi.

**Ключевые слова:** индивидуальность, индивидуальный подход, индивидуализация обучения, творческие ролевые игры, методы, технология индивидуализации обучения , технология программированного обучения.

**Key words:** individual, individual approach, individualization of training, creative role-playing games, technology of individualization of training, programmed teaching technology.

Yosh avlodning har tomonlama kamol topishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil bo'lishi bilan bir qatorda uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida ham yetakchi o'rinn tutadi. O'quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo'lida mehnat qilishga yo'naltiriladi.

Shu jihatdan individual o'qitish texnologiyasi mana shunday turli yondashuvlarning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Individual yondashuv texnologiyasiga yakka tartibda shug'ullanish xususiyati. "Individual" tushunchasi lotincha bo'lib, yakka tartibda yolg'iz va maxsus shug'ullanish ma'nolarini bildiradi. Aynan shu sababli individuallashtirilgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan o'quv va tadqiqot shakli bo'lib, unda har bir ta'liim oluvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etadi. Mana shu jihat bilan individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki unda yakka tartibda shug'ullanish, ijtimoiy faolligini oshirish va rag'batlantirish jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish, o'quvchilarda mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlanishning yangi pedagogik mexanizmlarini yaratish, ta'lim beruvchilarning uslubiy



yondashuvini kuchaytiradi va ta’lim oluvchilarning o‘quv-biluv malakasi asosiy diqqat markazida bo‘ladi.

Individual o‘qitish texnologiyasining yolg‘iz shug‘ullanish xususiyati shundaki, unda bir ta’lim oluvchi bilan shug‘ullanishda bir necha ta’lim beruvchi yoki ta’limni amalga oshiruvchi jamoa ishtirok etadi. Mana shu yolg‘iz shug‘ullanish shakli o‘quvchilarning qiziqishlari, xohish-istatlari va kasbhunarga bo‘lgan munosabatlarini aniqlashda muhim imkoniyatlarni beradi. Shu sababli pedagogika tajribasida mana shunday yolg‘iz tartibda shug‘ullanish masalasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

Ta’limning globallashuvi, o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining samarali qo‘llanilayotgani ta’lim muassasalarida, xususan boshlang‘ich sinflarda o‘qitish sifatining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy ta’lim jarayonining faol sub’yektlari o‘qituvchi va o‘quvchilar bo‘lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatları muayyan mavzu doirasida nazariy va amaliy bilimlarni puxta o‘zlashtirishiga imkoniyat yaratadi. Ertangi kuniga befarq bo‘lmagan, yorug‘ va farovon kelajakni yosh avlod istiqbolida ko‘rgan millat ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor qaratadi. Bilim qanchalik mustahkam bo‘lsa o‘quvchi dunyoqarashi, tafakkur doirasi shunchalik takomillashadi va rivojlanadi. Shu bois uzlucksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga qo‘yilayotgan davlat talablariga muvosfiq, o‘quv-tarbiya jarayonining samardorligini oshirish, ilm-fanning so‘ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z burchi hamda javobgarligini his etadigan shaxsni kamolga yetkazish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Keyingi paytlarda ijtimoiy murakkab sharoitlar sababli mamlakatimiz ta’lim tizimiga ta’limning masofaviy va onlayn shakllari joriy etiladi boshlandi. Ta’limning bu shakllari aslida individual yondashuv texnologiyasining asoslaridan hisoblanadi. Unga ko‘ra, masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan kelib chiqib, butun mamlakat miqyosida har bir ta’lim oluvchi bilan individual shug‘ullanish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Onlayn shakldagi ta’limda esa bevosita kompyuter, TV, radio kabi texnik vositalarning imkoniyatlariga tayangan holda o‘quvchilar bilan virtual ta’limda shug‘ullaniladi.

Ta’limning bu shakllari qiziqarligi va demokratik qadriyatlarga asoslanishi bilan muhim ahamiyatga ega. Individual yondashuv texnologiyasining o‘ziga xoslik xususiyatida shuningdek, ta’lim beruvchilarning faol bo‘lishi ham taqozo etiladi. Chunki ta’lim beruvchilar o‘quv materiallarini avvaldan va yangi ma’lumotlar asosida tayyorlashi, ularni o‘quvchilarga o‘z vaqtida yetkazishi hamda maxsus testlar vositasida ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini



nazorat qilib borishi muhim hisoblanadi. Shu sababli keyingi paytlarda darsliklarning elektron shakllariga va ularning imkoniyatlariiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. E'tibor berilsa, individual yondashuv texnologiyasining o'ziga xoslik xususiyatlarda o'quvchi va ta'lim beruvchilarning teng faol bo'lishi diqqat markazida bo'ladi. Bu hol pedagogik tajribalarda muhim omillardan biri sifatida hisobga olib kelinmoqda.

Individual yondashuv texnologiyasining amaliylik xususiyati unda pedagogik va psixologik metodlarning keng hamda uyg'un qo'llanishi bilan belgilanadi. Pedagogik metodlarning tushuntirish, izohlash, sharplash va yo'naltirish kabi xususiy metodlari individual yondashuv texnologiyasining amaliylik jihatlarini belgilaydi. Psixologik metodlarning ishontirish, ruhiy ko'niktirish, murakkab holatlardan chiqib ketishga yo'naltirish kabi xususiy metodlari individual yondashuv texnologiyasining amaliy omillaridan hisoblanadi. Shu sababli individual yondashuv texnologiyasida amaliylik xususiyati mavjudligi mazkur texnologiyaning negizlaridan birini tashkil etadi.

Ta'limning globallashuvi, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining samarali qo'llanilayotgani ta'lim muassasalarida, xususan boshlang'ich sinflarda o'qitish sifatining oshishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonining faol sub'yektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlarini muayyan mavzu doirasida nazariy va amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirishiga imkoniyat yaratadi. Ertangi kuniga befarq bo'lman, yorug' va farovon kelajakni yosh avlod istiqbolida ko'rgan millat ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa o'quvchi dunyoqarashi, tafakkur doirasi shunchalik takomillashadi va rivojlanadi. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limga qo'yilayotgan davlat talablariga muvofiq, o'quv-tarbiya jarayonining samardorligini oshirish, ilm-fanning so'ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi hamda javobgarligini his etadigan shaxsni kamolga yetkazish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutildi.

Ma'lumki, o'quvchining mavjud imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlash - zamonaviy o'quv jarayonida jadallahib borayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning talabidir. Bu borada individual o'qitish texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari tanlanadi va turli o'quv-uslubiy, psixologik, pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Tahsil oluvchining mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishini taminlash, zamonaviy o'quv jarayoniga qo'yiladigan jadallahsgan ilmiy-



texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o'qitish orqali erishish mumkin:

Individual o'qitish – bu o'quv jarayonining tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagogtahsil oluvchilar bilan yakkama-yakka shug'ullanadi, tahsil oluvchi o'quv vositalari(kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzlusiz mustaqil ta'lif oladi. Individual yondashish – bu pedagogik prinsipga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogningtahsil oluvchilar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga oлган holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida tahsil oluvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi. Individuallashtirilgan o'qitish maqsadi - bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirdi orqali ta'minlanadi. Individual o'qitish texnologiyasining afzalligi – pedagogik jarayonning o'quvchi qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda o'quvchini bilim olish darajasining doimiy monitoringi amalga oshiriladi, zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida maqbul pedagogik jarayon tashkil etiladi va o'ziga xos individual yondashuvga amal qilinadi.

"Individual yondashish – bu pedagogik tamoyilga ko'ra, pedagogik jarayonda o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga oлган holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida o'quvchining rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Treningni individuallashtirish deganda quyidagilar tushuniladi:

1) o'quv jarayonini tashkil etish, unda usullar, uslublar, o'rganish tezligi talabalarning individual xususiyatlari bilan belgilanadi, har bir o'quvchining potentsial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishga imkon beradi;

2) turli o'quv-uslubiy, psixologik, pedagogik va tashkiliy-boshqaruv individual yondashuvni ta'minlaydigan hodisalar. Individual ta'lif texnologiyalari shaxsga yo'naltirilgan ta'limning bir turi bo'lib, uning o'ziga xos quyidagi jihatlari mavjud:

— o'quvchining o'qitish jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillar (o'quvchilarning fikrlash, tafakkur qilish, ko'nikma va malakalarni egallashdagi xatoliklar.

Individual ta'lif texnologiyasi – ta'lif jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar o'quvchi bilan yoki o'quvchining ta'lif vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televideniye, radio va b. axborot texnologiyalar) bilan o'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lif.

3 Mazkur o'qitish texnologiyasini amaliyatga tatbiq etishda individual o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi. CHunki o'quv



topshiriqlari yordamidagina o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

4-topshiriq. “Gap tuz” o'yini. Ushbu o'yinda o'qituvchi doskaga mavzudan kelib chiqib 5 yoki 6 ta so'zlar yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning og'zaki bog'lanishli nutqi,lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O'quvchilarning vaqt-vaqt bilan rag'batlantirib turilishi, ularning o'ziga bo'lgan ishonchni yanada ortishiga sabab bo'ladi. Misol uchun: 3-sinf “O'qish” darsligining “Tinchlik va do'stlik bo'lsin barqaror” bo'limidagi “Tinchlik ko'chasi” va “Ahillik ko'chasi” (Kavsar Turdiyeva) she'rini olaylik.

1. Hech qachon, tegmasin, tinchlik, ko'z, osoyishtaligimizga, va;

Javobi: Tinchlik va osoyishtaligimizga hech qachon ko'z tegmasin.

2. Joyda, qiladi, bor, ahillik, hamisha, hukmronlik, tinchlik;

Javobi: Ahillik bor joyda hamisha tinchlik hukmronlik qiladi.

3. Yumushing, elga, chunki, hashar, bitmay, yarashar, yumushing, qolmas.

Javobi: Bitmay qolmas yumushing, chunki hashar elga yarashar. Respublikamiz ta'llim sohasidagi islohotlar samarali omillaridan keng ko'lamda foydalanish, bu jarayon qatnashchilari orasida ongli hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va milliy mentalitetini hisobga olishni taqozo qiladi. Bu xayrli ishga Respublikamiz olimlari va amaliyotchilari ham baholi qudrat o'z ulushlarini qo'shmaqdalar. Masalan, R.J.Ishmuhamedov ishlarida: klaster (tarmoqlar), 3x4,blits-o'yin metodlari; intervyu, iyerarxiya, muloqot, boshqaruv, bumerang texnikasi; talaba,o'qituvchi shaxsi treningi; murakkab vazifalarni qo'llash, aqliy hujum, skarabey, veyer,FSMU, sinektik muammoli o'qitish, ijodiy masalalarni hal qilish, tarozi, yelpig'ich,individual o'qitish, mualliflik texnologiyalarining mohiyati, ularning qo'llanish hollari yoritilgan.N.Sayidahmedovning umumiyl tahriri ostida nashr ettirilgan “Yangi pedagog texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohazalar” (o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar) nomli ishda: yozma bahslar, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, ajurli arra, 6x6x6, qarorlar shajarasи, rolli o'yin, bahs-munozara, o'zing uchun qulay joy tanla kabi metodlaridan foydalanish bayon etilgan.

N.N.Azizzo'jayevaning “Pedagogik texnologiya va pedagogi mahorat” (barcha mutaxassislik magistratura yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma) nomli ishida muammoli o'qitish texnologiyasi, o'yin texnologiyasi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar, mualliflik texnologiyasi, shaxsga e'tibor qaratish asosidagi pedagogik texnologiya, o'qitishni intensifikatsiyalash yoki jadallashtirish texnologiyasi, o'quv jarayoninin samarali boshqarish va tashkil etish asosidagi pedagogik texnologiyalar, o'qitishni differensiallashtirish,



o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi,dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi kabilar yoritilgan.

J.G‘. Yo‘ldoshev, S.A.Usmonovlar: klassik ma’ruza, texnik vositalar yordamida o‘qitish, maslahatchilik tizimi, darslik bo‘yicha o‘qitish, kichik guruhlar tizimi, kompyuter yordamida o‘qitish, repititorlik tizimi, dasturlashtiriladigan boshqaruv, avtoritar, didaktik yo‘naltirilgan, ijtimoiy yo‘naltirilgan, antropologik yo‘naltirilgan, pedagogik yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan, insonparvarlikka va shaxsga yo‘naltirilgan, hamkorlik texnologiyalariga yo‘naltirilgan, erkin tarbiyaga yo‘naltirilgan, ezoterik ta’lim va tarbiyaga yo‘naltirilgan, dogmatik, reproduktiv metod; tushuntirish, ko‘rgazmali; rivojlantiruvchi ta’lim; muammoli, izlanishli; ijodiy metod; dasturlashtirilgan ta’lim metodi; dialogli metod; o‘yin metodi; o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi ta’lim metodi; axborotli (kompyuterli) metodi; hozirgi an’anaviy ta’lim; shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar;

o‘quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar, o‘quv jaryonini boshqarish va tashkil qilish samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiyalar; materialni didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi pedagogik texnologiyalar; xususiy fan pedagogik texnologiyalari; alternativ texnologiyalar; tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar; rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari; mualliflik maktablari pedagogik texnologiyalari; texnologiyalarni loyihalash va o‘zlashtirish texnologiyalari; fanlar bilim, o‘quv, ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan – axborot texnologiyalari; aqliy faoliyat usullarini shakllantiriga yo‘naltirilgan - operatsion texnologiyalar; estetik va axloqiy munosabatlar sohasini shakllantirishga yo‘naltirilgan emotSIONAL badiiy va emotSIONALAXLOQIY texnologiyalar; shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘z-o‘zini rivojlantirish texnologiyalar;

ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan – evristik texnologiyalar; amaliy faoliyat sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy texnologiyalar va shu kabilar.

N.X.Avliyoqulov “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari” nomdagi ishlarida:

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari;

avtoritar va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari; ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi;

muammoli o‘qitish texnologiyasi;individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi;

tabaqlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi;dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi; kompyuterli o‘qitish texnologiyasi;

modulli o‘qitish texnologiyasi kabilar haqida fikrlar bayon etilgan.



Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, yuqoridagi kabi ta'limiy texnologiyalarni qo'llagan holda darslarni tashkil etish o'quvchilarni nafaqat mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni, balki darsda faol ishtirok etish, diqqatni jamlash, har bir topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashish, shuningdek o'zgalar fikrini hurmat qilish va tinglash kabi sifatlarni ham shakllantiradi. Bu borada o'qituvchi har bir darsga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishi, iqtidor va iste'dodni rag'batlantirish hamda aql-zakovotini ayamasliklari lozim.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
2. Pedagogik texnologiya. N.X.Avliyakulov, N.N.Musaeva. –T.: ChopoN NMIU, 2012. 90-bet.
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – Toshkent: 2015. 168-bet.
4. Mahmudov M. O‘quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002-yil, 3-son, 3-11 betlar.
5. Abdurahmanova N., Jumaev M., O'rınboeva L. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: «Istiqlol», 2004, - 65 bet
6. Rakhmanova Mukaddas. “Scientific and pedagogical bases of preparation of students for development of social activity in the process of professional and pedagogical education” www.eprajournals. som | Journal DOI URL: <https://doi.org/10.36713/epra2013.B.283-287>.
7. Raxmanova M.Q. Problems of Improving Social Competence of Students in the Process of Higher Pedagogical Education // Sentral asian journal of literature, philosophy and culture 12 Des 2022 B.48-52
8. Raxmanova M.Q. O‘quvshilar kasbiy ta’limining psixologik jihatlari va motivlari // O‘zMU xabarlari. 2021. –№1/3/ – B. 114-116.

### **РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada “Boshlang'ich ta'limda individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshrish“ to‘g‘risida so‘z boradi. Chunki, o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ta’minlash – zamonaviy o‘quv jarayonida jadallashib borayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning talabidir. Zamonaviy texnologiyalaridan foydalanib o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o‘qitish yo‘llari, usullari tanlanadi va turli o‘quv-uslubiy, psixologik, pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi.

### **.РЕЗЮМЕ**

Данная статья посвящена теме «Повышение эффективности использования индивидуализированных технологий обучения в начальном образовании». Потому что обеспечение реализации имеющихся возможностей обучающегося – это требование научно-технического развития, ускоряющегося в современном образовательном процессе. При организации образовательного процесса с использованием современных технологий способы и методы обучения подбираются на основе индивидуального подхода и реализуются посредством различных учебно-методических, психолого-педагогических и организационно-управленческих мероприятий.

### **SUMMARY**

This article is about «Increasing the efficiency of using individualized teaching technologies in primary education». Because ensuring the realization of the student's existing capabilities is a requirement of the scientific and technical development that is accelerating in the modern educational process. In the organization of the educational process using modern technologies, the ways and methods of teaching are selected based on an individual approach and are implemented through various educational and methodological, psychological, pedagogical and organizational management measures.